

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –
3 147,2 mlrd. so`m

O`tgan yilning mos davriga
nisbatan –
125,7 %

Nodavlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –
2 974,6 mlrd. so`m

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar
–
172,6 mlrd. so`m

Joriy yilning yanvar - sentyabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **3 147,2** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **125,7 %** ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **444,2** mlrd. so`mni tashkil etdi.


O`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish sur`ati **3,0** martaga o`sgan bo`lsa jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan keskin oshib - **8,2** punktga oshgan.



■ Yirik qurilish tashkilotlari



■ Norasmiy sektorlar



■ Kichik va mikrofirmalar



■ Jami qurilish ishlari

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **444,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **3,0** martaga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **14,1%** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **8,2 %** punktga ko'paygan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **60,0 %** ni to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **129,2 %**ni tashkil etgan holda **1 888,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan - **9,6 %** punktga kamayib, **25,9 %**ni tashkil etdi va **814,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **90,6 %**ni tashkil etgani kuzatildi.


Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-sentyabr)

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **172,6** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,5%** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **2 974,6** mlrd.so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **94,5%** ni tashkil etdi.



Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **8,5 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,5 %** punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga ko'payib, **57,6 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **-10,5 %** punktga kamayib **33,9%** ni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
(jamiga nisbatan % da)



Binolar va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **8,5 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,5 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **57,6 %** (**3,0 %** punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **33,9 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan - **10,5 %** punktga kamaydi.

Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **35,5 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **20,4 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **63,3 %** (- **13,1 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **1,2 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan - **7,3 %** punktga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **27,8 %** ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan - **2,2 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **72,2 %** ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko`paygani kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari


№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar- sentyabr (mlrd, so'm)	2019 yil yanvar- sentyabr (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
ViLOYAT bo'yicha jami:		2119,7	3147,2	125,7	100,0
1	Farg'ona shahar	443,6	659,7	126,1	21,0
2	Qo'qon shahar	222,6	289,8	110,4	9,2
3	Quvasoy shahar	160,3	243,9	129,1	7,8
4	Marg'ilon shahar	153,1	265,5	146,9	8,4
5	Oltiariq tumani	82,8	119,2	121,6	3,8
6	Qo'shtepa tumani	92,6	139,7	127,0	4,4
7	Bag'dod tumani	114,1	140,4	104,4	4,5
8	Buvayda tumani	69,2	84,8	103,5	2,7
9	Beshariq tumani	68,9	250,0	307,3	7,9
10	Quva tumani	86,0	135,0	132,4	4,3
11	Uchko'prik tumani	93,4	108,2	98,2	3,4
12	Rishton tumani	43,3	56,9	111,1	1,8
13	So'x tumani	31,8	38,2	101,6	1,2
14	Toshloq tumani	55,8	72,7	110,1	2,3
15	O'zbekiston tumani	37,1	63,8	145,3	2,0
16	Farg'ona tumani	172,2	61,1	30,1	1,9
17	Dang'ara tumani	96,8	178,9	155,7	5,7
18	Furqat tumani	68,1	105,3	130,0	3,4
19	Yozyovon tumani	27,8	134,3	409,6	4,3

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi
(jamiga nisbatan, % da)



O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hisssasi Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining **21,0 %** ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida **9,2%** ni, Marg'ilon shahrida esa **8,4%**, Quvasoy shahrida **7,8%**ni tashkil etdi. Shu bilan birga Beshariq tumanida **7,9%**, Dang'ara tumanida **5,7%**, Bag'dod tumanida **4,5%**, Qo'shtepa tumanida **4,4%**, Quva tumanida esa **4,3%**, Yozyovon tumanida **4,3%**ni tashkil etdi. Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmida hisssasi kam bo'lgan tumanlar xususan, So'x tumanida jami qurilish ishlari hajmining **1,2 %**, Rishton tumanida **1,8%** ni, hamda O'zbekiston tumanida **1,9 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori hissassi viloyatning Yozyovon tumanida **409,6** % kuzatilib jami qurilish ishlari hajmining **4,3** % ni tashkil qildi. Beshariq tumanida **307,3** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **7,9** % ni, Dang'ara tumanida **155,7** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **5,7** % ni, Oltiariq tumanida **121,6** %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,8** % ni, Furqat tumanida **130,0** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,4** % ni, Quva tumanida **132,4** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **4,3** % ni tashkil etdi. Shuningdek, Farg'ona shahrida o'sish sur'ati **126,1%** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **21,0** % ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida o'sish sur'ati **110,4** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **9,2** % ni tashkil etdi. Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati **146,9** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,4** % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **129,1** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **7,8** % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari tarkibi
(jamiga nisbatan %da)

	Yirik pudrat tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jami viloyat	14,1	60,0	25,9
Farg'ona sh	10,4	73,2	16,4
Qo'qon sh	34,9	50,6	14,5
Quvasoy sh	2,8	87,2	10,0
Marg'ilon sh	0,1	75,2	24,7
Oltiariq	0,4	61,8	37,8
Qo'shtepa	0,3	43,5	56,2
Bag'dod	7,0	82,4	10,6
Buvayda	1,5	56,9	41,6
Beshariq	70,0	10,1	19,9
Quva	0,5	51,1	48,4
Uchko'prik	2,8	85,2	12,0
Rishton	1,0	61,0	38,0
So'x	1,1	72,2	26,7
Toshloq	0,8	57,0	42,2
O'zbekiston	0,7	69,5	29,8
Farg'ona t	8,1	79,8	12,1
Dang'ara	5,5	39,5	55,0
Furqat	0,3	34,2	65,5
Yozyovon	44,0	44,0	12,0



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
"Investitsiyalar va qurilish statistikasi" bo'limi

Nashr uchun mas'ul: R.Kadirova

Aloqa telefoni: (0373) 241-98-42